

## ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA TASVIRLASH VA REALLIK MASALALARINING ILMIY-ADABIY TAHLILI

Ashurova Sevinch Ikromjon qizi

Surxondaryo viloyati Termiz shahar

12-umumiy o'rta ta'lim maktabi 11-sinf o'quvchisi

### Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida tasvirlash va reallik masalalarining ilmiy-adabiy tahlili haqida so'z boradi. Bu mavzudagi maqolamiz ko'pchilik uchun foydali bo'ladi degan umiddamiz.

**Kalitso'zlar:** She'riyat, o'zbek adabiyoti, adabiyotshunoslik, A, Qutbiddin, ijod, tasavvur, tasvir.

O'zbek adabiyotiga zamonaviy adabiyotning kirib kelishi yoki ta'siri borasida olimlarimizning qarashlari turlicha. Xususan, professor U.Normatov o'tgan asrning 20-yillarida Cho'lpon, Qodiriy, Fitrat, Botu, Oybek kabi ijodkorlar G'arb modernizmidan kuchli ta'sirlanganini ta'kidlab o'tadi. Filologiya fanlari nomzodi M.Yo'ldosheva ham o'z tadqiqotida jadid adabiyotiga xos ba'zi xususiyatlar o'zbek adabiyotida XX asr boshlaridayoq modernizmning bo'y ko'rsatganidan darak berishini aytadi. M.Xolbekov esa modernizm o'zbek adabiyotiga o'tgan asrning 80-yillaridagina kirib kelgan degan fikrni ilgari suradi. Umuman, modernizmga xos xususiyatlarning adabiyotimiz tarixining turli davrlarida uchratish mumkinligini ko'plab olimlarimiz tasdiqlaydilar. Adabiyotshunoslikda yangi hodisaga nisbatan qarashlarning turlicha bo'lishi tabiiy, albatta. Ammo, bizningcha, adabiy yo'nalishning muayyan davrga xosligi unga tegishli xususiyatlarning uchrab turishi bilan emas, balki butun bir ijtimoiy guruhning shu yo'nalishga xos ijodiy kayfiyatda ekani bilan belgilanishi kerak. Shu ma'noda, biz M.Xolbekov ko'rsatgan davr (80-yillar)ni o'zbek adabiyotiga modernizmning kirib kelishi davri deb hisoblaymiz. Zamonaviy o'zbek she'riyatidagi modernistik tamoyillarni yaxlit holda tasavvur etishda "O'zbek modern she'riyati" nomli to'plam ahamiyatga molik. Mazkur to'plamda yigirma to'rt nafar shoirning ijod namunalari jamlangan. To'plam tuzuvchilari o'tgan asrning 20-30- va 70-yillarida she'riyatimizda modernizmga xos xususiyatlarning aks etganligini qayd etsalar-da, kitobga 80-yillarga kelib ijod eta boshlagan shoirlarning she'rlarini kiritadilar. Kitob mundariyasi shoir Abduvali Qutbiddin asarlari bilan boshlanganini hisobga olsak, tuzuvchilar uni o'zbek modern she'riyatining peshqadami sifatida ko'radi. A.Qutbiddin ijodida she'riyatimizda birinchilardan bo'lib modernistik tasvir to'laqonli namoyon bo'ldi. Undan oldingi shoirlarning she'rlarida muayyan modernistik vizual obrazlar yaratilgan bo'lsa, A.Qutbiddin butun tasvirni, butun manzarani modernistik uslubda "chizadi":

*Qor gulxani...*  
*Big‘illab qaynayotgan chovgun...*  
*Bo‘g‘otlarda hakalab yurgan qish...*  
*Qor chaqmog‘i...*  
*Etagi kuygan izg‘irin...*  
*Qor bo‘roni...*  
*O‘yin tushayotgan ayol...*  
*Charx urib... Charx urib...*  
*Charx urib...*

“Tasavvur lahzalari” she‘riy turkumidan olingan ushbu parchada shoir qish manzaralarini bu faslga xos bo‘lmagan ko‘rinishlar bilan (“Qor gulxani...”, “Qor chaqmog‘i...” v.b.) tasvirlashga uringan. Albatta, bu o‘rinda muayyan manzarani, shoir maqsad qilgan badiiy g‘oyani anglab olish juda qiyin. Chunki biz shundoq ham tushunish mushkul bo‘lgan misralarni katta hajmli she‘rdan ajratib olganmiz. Ammo “Tasavvur lahzalari” she‘rini to‘la o‘qib, gap 90-yillarning achchiq hayoti haqida ketayotganini tushungan o‘quvchi yuqoridagi “mantiqsiz” parchada ham muayyan manzarani ko‘radi, asosiysi, lirik sub’yekt kayfiyatini his qiladi. Zero, 90-yillar hayoti ijodkor nazdida shu kabi alg‘ov-dalg‘ov, sira o‘xshashi yo‘q manzaralardan iborat edi. Shoir hali o‘zi ham tushunib ulgurmagan hayotiy, ijtimoiy manzaralarni shu kabi noreal tasvir bilan ifodalaydi. Bu she‘rning ifodaviy o‘ziga xosliklari modernizmning dadaizm oqimida ijod qilgan musavvirlarning kartinalarini yodga soladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Yoshlik jurnali. 2018-yil, 6-son.
2. Rasulov R. (2020). Kelajak – til sohiblariniki. Til va adabiyot ta‘limi, 7(7), 63-64.